

AUDITNING MUHIMLIK DARAJASINI ANIQLASH

Bank-moliya akademiyasi Magistri Xudayberdiyeva Shirin Bahodir qizi

Ilmiy rahbar dotsent Yarkulova M
xudoyberdiyevashirin5@gmail.com

Annotasiya. Iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy nazorat tizimida auditning o'rni, auditor va mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kengayib bormoqda. Iqtisodiyotni boshqarishdagi o'zgarishlar auditorlardan o'z malakalarini muntazam oshirib borishni talab qilmoqda, aks holda, auditor vazifalarini bajarishda tavakkalchilik darajasining yuqori bolishiga olib kelishi mumkin. Bu, o'z navbatida, auditorlik firmalari zimmasiga noto'g'ri ma'lumot berganligi sababli moddiy javobgarlikni qo'yadi. Rivojlangan davlatlarda auditning hozirgi bosqichi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchilikka asoslangan bolib, iloji boricha kamchiliklarga yol qo'ymaslik va ularning oldini olishni o'z ichiga oladi. Mazkur maqлада auditning muhimlik darajasini aniqlash, audit riski, audit strategiyasi va ularning o'zaro bog'liqlik haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: audit, audit riski, tekshiruv strategiyasi, muhimlik darajasi, auditor, tavakkalchilik

Аннотация. Опыт стран с высокоразвитой экономикой показывает, что роль аудита в системе финансового контроля, взаимодействия аудитора и клиента расширяется. Изменения в управлении экономикой требуют от аудиторов регулярного повышения своей квалификации, что в противном случае может привести к более высокому уровню риска при исполнении обязанностей аудитора. Это, в свою очередь, возлагает на аудиторские фирмы материальную ответственность за дезинформацию. Текущий этап аудита в развитых странах основан на потенциальном риске и включает в себя максимально возможное предотвращение и предотвращение недостатков. В данной статье приводится информация об определении степени важности аудита, аудиторском риске, стратегиях аудита и их взаимосвязи.

Ключевые слова: аудит, аудиторский риск, стратегия аудита, уровень значимости, аудитор, риск

Annotation. The experience of countries with highly developed economies shows that the role of audit in the system of financial control and interaction between the auditor and the client is expanding. Changes in economic management require auditors to regularly upgrade their skills, which otherwise may lead to a higher level of risk in the performance of auditor duties. This, in turn, places financial responsibility on audit firms for misinformation. The current audit phase in developed countries is based on potential risk and includes the maximum possible prevention and avoidance

of deficiencies. This article provides information on determining the importance of an audit, audit risk, audit strategies and their relationship.

Keywords: audit, audit risk, audit strategy, significance level, auditor, risk

KIRISH

Audit rejasini ishlab chiqish jarayonida auditor tomonidan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yana bir muhim masala, muhimlik va audit riski darajasini belgilab olishdir. Muhimlikni sonda ifodalash auditor uchun tekshiruv ko'lamini belgilashda yordam beradi. Auditorlik tekshiruvda muhimlik bu hisobot ko'rsatkichlari uchun ahamiyatli hisoblanadi, chunki auditorlik tekshiruvda muhimlik axborot foydalanuvchilarning shu hisobotdan notug'ri foydalanishiga ham olib kelishi mumkin. Muhimlik darajasining mutlaq ko'rsatkichini aniqlash vaqtida auditor audit o'tkazilishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisoboti haqiqiylikini ta'riflaydigan eng muhim ko'rsatkichlarni (moliyaviy hisobotning bazaviy ko'rsatkichlari) asos qilib olishi lozim.

Auditor tekshiruvni yuqori sifatli, shu bilan birga, mijoz uchun eng anon qiymatda o'tkazish maqsadida xatoliklar ichidan taqatagina muhim hisoblanganlarini tanlab oladi va tekshiradi. «Jiddiylik va auditorlik riski» nomli NQ 9 AFMSI¹ ga asosan muhimlik - moliyaviy hisobotdagi xatoning ushbu hisobotdan malakali foydalanuvchi unga asosan to'g'ri xulosalar chiqarishi va to'g'ri qarorlar qabul qilishiga mone'lik qiladigan chegaradir. Muhim bo'lmagan (kichik) xatoliklarning auditor tomonidan tekshirilmasligiga sabab bu xatoliklar juda kichik va moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar qaroriga har qanday vaziyatda ham jiddiy ta'sir etmaydi; kichik xatoliklarning sababini aniqlash va to'g'rilash uchun ko'p vaqt va mablag' talab etiladi; bu xatolarning sababini aniqlash va to'g'rilash uchun sarflangan vaqt natijasida moliyaviy hisobotlarni topshirish muddatlari o'tib ketishi mumkin.

Audit tekshiruvini rejalashtirish jarayonida auditor tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng muhim vazifalardan biri audit riskini baholash hisoblanadi.

Muhim noto'g'ri tavakkalchiliklarni aniqlash va baholash har bir auditning, xususan, korxonaning ichki nazorat tizimi haqida tushunchaga ega bo'lish va nazorat riskini baholashning asosini tashkil etadi. Tegishli risklarni baholash auditorga javob beruvchi protseduralarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi. Bu audit sifatini oshirish uchun auditorlik risklarini baholash standartlariga oid yangiliklar, manbalar va o'rganish manbalaridir.

Auditda muhimlikning ikki qirradi mavjud, ya'ni sifat va miqdor. Auditni rejalashtirishda muhimlikni miqdor jihatdan aniqlab olish zarur. Muhim xatoliklarni miqdor jihatdan baholash bilan birga auditor ularni sifatini ham mohiyati jihatdan ham

¹ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 03.09. 813-son bilan ro'yxatga olingan.

tahlil qilib olishi kerak boladi. Masalan, hisob siyosatini yetarli keltirilmaganligi va asoslanmaganligi. Shu bilan birga, miqdori uncha katta bolmagan summalarni doimiy buzib ko'rsatish to'planib borib moliyaviy hisobotga muhim ta'sir ko'rsatishini ham inobatga olish kerak.

Auditor muhimlikni umumiy moliyaviy hisobotga nisbatan ko'rib chiqish bilan birga har bir schyot sal'dosi va muomilalar turiga nisbatan ham hisobga olishi mumkin. Auditorlik riski va muhimlik ko'rsatkichi rejalashtirilgandan farqli audit yakunida o'zgarishi ham nazarda tutilgan va ehtimoldan holi emas. AXS da auditorlik riski va muhimlik o'rtasida teskari aloqa mavjudligi qayd etilgan. Muhimlik darajasi qancha yuqori bolsa auditorlik riski shuncha past bo'ladi. Agar auditor xato yoki ma'lumotni buzib ko'rsatilishini muhim deb hisoblasa auditorlik riskini pasaytirishi mumkin. Buning uchun u quyidagi choralarni ko'rishini mumkin: - xato yoki ma'lumotni buzib ko'rsatilishi miqdorini aniqlashtirish uchun auditorlik amallari ko'lamini kengaytirishi; - rahbariyatga moliyaviy hisobotga o'zgartirishlar kiritishi yuzasidan taklif berish. Tekshirilayotgan korxonada rahbariyati moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini o'zgartirish taklifini rad etsa, auditor AXS 701 "Mustaqil auditor hisoboti (xulosasi)dagi modifikatsiyalar" standartiga asosan modifikatsiyalashgan auditorlik xulosasi taqdim etish masalasini ko'rib chiqishi mumkin. AXS da qayd etilishicha Davlat sektoridagi auditorlik nazoratini o'tkazish jarayonida muhimlik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun qonunchilik jabhalarini inobatga olish kerak.²

Audit riski - auditor tomonidan, muhim xatoliklarga ega bo'lgan moliyaviy hisobotlar yuzasidan, bilmagan holda noto'g'ri (teskari) xulosa berilishi riskidir. Boshqacha qilib aytganda, moliyaviy hisobotlarda muhim xatoliklar mavjud, ammo tekshiruv jarayonida auditor tomonidan ularning aniqlanmaslik xavfi.³

Rejalashtirish jarayonida muhimlik ko'rsatkichi va audit riskini baholishni amalga oshirgach auditor tekshiruv strategiyasini ishlab chiqishi lozim. Audit strategiyasi - tekshiruvning yakuniy maqsadiga mijoz uchun eng kam xarajatga tushadigan, ammo har taraflama sifatli tekshiruv o'tkazish orqali erishishdir. Samarali va asosli audit strategiyasini ishlab chiqish auditoridan, mijoz faoliyat yuritayotgan tarmoq bilan yaqindan tanish bo'lishni va audit sohasida chuqur malakaga ega bo'lishni talab etadi. Yirik mijoz uchun audit strategiyasi, odatda, auditorlik firmasi partnyori yoki menejeri tomonidan, o'rta yoki kichik mijoz uchun esa katta auditor tomonidan ishlab chiqilishi mumkin. So'nggi vaziyatda, katta auditor ishlagan strategiya menejer tomonidan o'rganiladi

Tekshiruv strategiyasida audit tekshiruv uslubiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ham yoritilishi mumkin. Ushbu uslubiyatlarni belgilash jarayonida auditorga, mijozning buxgalteriya ma'lumotlarini tizimlashtirilgan asosda hisobga olinishijuda

² HAMDAMOV B.Q AUDITNING XALQARO STANDARTLARI TOSHKENT «IQTISOD-MOLIYA» 2020. 85 b

³ K. Ahmadjonov, I. Yakubov AUDIT ASOSLARI Toshkent «IQTISOD-MOLIYA»

qo'l keladi. Ma'lumotlarni tizimlashtirilgan holda hisobga olishda operatsiyalar boshlang'ich hisob hujjatlarida qayd etiladi; bu hujjatlardagi ma'lumotlar jurnallarda umumlashtiriladi; jural ma'lumotlari tegishli schyotlar debiti va kreditiga kiritiladi; yil yakunida schyotlar balansi asosida moliyaviy hisobotlar tayyorlanadi.

Audit riski, moliyaviy hisobotlarni tekshirish jarayonida muvaffaqiyatsizlik va kamchiliklar ehtimoli bo'lgan yo'l o'rnatish ehtimoli. Bu muammolar moliyaviy hisobotlarni tuzish, yetkazish va ma'lumotlarni to'plash jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin. Audit riski ko'proq yo'l o'rnatilganda, auditni samarali va foydali qilish imkoniyati oshiriladi.

Audit riskining boshqa turlari mavjud bo'lishi mumkin, shu jumladan:

1. Nifformativlik riski: Moliyaviy hisob-kitoblarni to'g'ri ko'rsatish, shu jumlada, qonunchilik va moliyaviy hisob-kitob standartlariga mos keltirish.

2. Sub'ektivlik riski: Auditorlar va moliyachilar o'rtasida moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish va shakllantirish jarayonida paydo bo'lgan fikr-mulohazalar bo'yicha farq-ofarqliklar.

3. Xato va bug'unchilik riski: Moliyaviy hisobotlarni tuzish, hisob-kitoblarni yuritish va ma'lumotlar bilan ishlash jarayonlarida paydo bo'lab turuvchi xatoliklar va bug'unchiliklar ehtimoli.

Audit riski, auditning samarali bajarilishini ta'minlash uchun auditorlar tomonidan diqqat bilan aniqlanishi, baholashishi va boshqarilishi lozim. Bu, moliyaviy hisobotlarni to'g'ri tahlil qilish, hisob-kitoblarni tekshirish va audit natijalarini amalga oshirish jarayonida muvaffaqiyatli bo'lish uchun juda muhimdir.

Audit riski va auditning muhimlik darajasi bir-biriga bog'liq va auditorlik tekshiruvda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu ikkala tushuncha auditorlik faoliyatini rejalashtirish va o'tkazishda bir-biriga yordam beradi. Mana, ularning o'zaro aloqasi va audit jarayoniga qanday ta'sir qilishini batafsil ko'rib chiqamiz:

Audit riski:

Audit riski auditorning moliyaviy hisobotda xatolik yoki buzg'unchilik borligini aniqlamasligi ehtimoli. Bu uchta tarkibiy qismlardan iborat:

- Interent risk: Bu tashkilotning biznes faoliyati va atrof-muhitiga bog'liq bo'lgan, auditdan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan xatolik yoki buzg'unchilik ehtimoli.

- Nazorat riski: Bu tashkilotning ichki nazorat tizimining moliyaviy hisobotdagi xatolik yoki buzg'unchilikni aniqlash va to'g'rilashda muvaffaqiyatsiz bo'lish ehtimoli.

- Aniqlash riski: Auditorning muhim xatolik yoki buzg'unchiliklarni aniqlay olmasligi ehtimoli.

Auditning muhimlik darajasi:

- Bu auditor uchun moliyaviy hisobotdagi xatolik yoki buzg'unchilikning muhimligi darajasini belgilashdir. Agar biror narsa auditor uchun muhim deb hisoblanmasa, auditor uni qabul qilishi mumkin.

- Auditor tekshiruvni rejalashtirishda muhimlik darajasini aniqlaydi, bu tekshiruvni qaysi jihatlarini e'tiborga olish kerakligi va qaysi tafsilotlarni nazorat qilish kerakligini aniqlaydi.

O'zaro aloqasi:

- Auditorlar audit riskini boshqarish uchun auditning muhimlik darajasini hisobga oladi. Agar audit riski yuqori bo'lsa, auditor muhimlik darajasini pasaytiradi va aksincha, agar audit riski past bo'lsa, auditor muhimlik darajasini ko'taradi.

- Audit riski va muhimlik darajasi auditorlik tekshiruvi davomida auditorning diqqat qilishiga ta'sir qiladi. Agar audit riski yuqori bo'lsa, auditor hisobotlarning ko'proq qismini ko'rib chiqadi, shuning uchun audit jarayonining muhimlik darajasi past bo'ladi.

- Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda auditor audit riskini va muhimlik darajasini baholash orqali tekshiruv usullarini va ko'lamini aniqlaydi.

Shunday qilib, audit riski va muhimlik darajasi auditorning tekshiruv jarayonida qanday tekshirish usullarini va qanday ko'lamda tekshirishlarni amalga oshirishini aniqlaydi. Bu auditorlik tekshiruvi davomida auditorning ishonchliligini oshiradi.

XULOSA

"Auditning muhimlik darajasini aniqlash" tushunchasi audit jarayonining muhim bir qismidir. Audit jarayonida auditor hisobiy ma'lumotlar va hujjatlarni tekshirish jarayonida qaysi tafsilotlarni e'tiborga olish kerakligini aniqlaydi. Muhimlik darajasi auditorning tekshiruv jarayonida qaysi tafsilotlarni ko'proq diqqat bilan ko'rib chiqishini va qaysi tafsilotlarni umumiy ko'rib chiqish bilan cheklanishini aniqlaydi.

Auditda muhimlik darajasini aniqlash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. *Yakuniy natijaga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan elementlarni aniqlash: Bu auditor hisobiy hisobotlarning moliyaviy ko'rinishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim elementlarni aniqlashi kerakligini anglatadi.*

2. *Risklarni baholash: Auditor tashkilotning moliyaviy ma'lumotlaridagi risklarni aniqlab, baholash kerak.*

3. *Audit strategiyasini aniqlash: Muayyan muhimlik darajasini aniqlaganidan so'ng, auditor tekshiruvning qaysi jihatlarini diqqat bilan ko'rib chiqishini belgilaydi.*

4. *Xulosa chiqarish: Audit natijasiga asoslanib, auditor tashkilotning moliyaviy hisobotlarining aniqlik va ishonchliligini tekshiradi.*

Muayyan muhimlik darajasi auditorlik ishi uchun hal qiluvchi element hisoblanadi, chunki u auditorlik tekshiruvi davomida diqqat qilish kerak bo'lgan jihatlarini aniqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. HAMDAMOV B.Q AUDITNING XALQARO STANDARTLARI TOSHKENT «IQTISOD-MOLIYA» 2020.
2. М.С.ХОЖИЕВ, И.И.МЕЛИЕВ, С.А.ДЖУМАНОВ АУДИТ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ ТАШКЕНТ 2020 г
3. MARIAN MENTZ “AN INTEGRATED AUDIT EVIDENCE PLANNING MODEL TO QUANTIFY THE EXTENT OF AUDIT EVIDENCE” UNIVERSITY OF SOUTH AFRICA 2021
4. Sattorov Alisher AUDITORLIK TASHKILOTLARI TOMONIDAN AUDITORLIK TEKSHIRUVLARI O‘TKAZISH JARAYONIDA DALILLARNI TO‘PLASH AHAMIYATI VA ZARURIYATI DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.250> 2023
5. Abrema Audit Courses. (2007, August 29). Retrieved from Abrema: abrema.net
6. Lowe, D. J., Reckers, P.M.J. & Whitecotton, S.M. (2002). The effect of decision-aid use and reliability on jurors’ evaluations of auditor liability. *The Accounting Review*, 77(1), 185–202.
7. Reimers, J. L. & Fennema, M.G. (1999). The audit review process and sensitivity to information source objectivity. *Auditing: A Journal of Practice & Theory*, 18(1), 117– 123.